


## SURXONDARYO VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-iyun)


Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 4704,2 mlrd. So'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,8 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 432,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 27,1%), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 4272,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 4,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 456,1 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,3 % ga ko'paygan) tashkil etdi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahrida (17,7%), Termiz (5,5 %), Boysun (5,4%) , Denov (3,7 %) Sho'rchi (3,2 %) va Muzrabot tumanlarida (2,8%) qayd etildi.


## Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 27,1% ga o'sdi va 432,0 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 9,2 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 4272,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 4,0 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 90,8 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi bo'yicha Muzrabot (99,4 %), Uzun (99,0 %), va Denov (97,4%)

tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 9,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (28,8 %), Termiz (14,9%) va Jarqo'rg'on tumanlarida (5,3 %) kuzatilgan.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Termez shahri (22,2 foiz), Denov tumani (21,1 foiz), Sho'rchi (8,9 foiz), Sherobod (5,8 foiz) va Jarqo'rg'on (5,4%) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.


**Tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda**



**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalar  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>431,9</b>	<b>127,1</b>	<b>4272,3</b>	<b>104,0</b>
Termiz Sh.	301,5	214,7	745,2	99,6
Oltinsoy	5,7	49,7	196,3	105,0
Angor	7,4	60,7	205,1	104,6
Boysun	8,5	71,6	194,3	107,6
Muzrabot	1,0	18,3	182,5	105,6
Denov	25,8	68,1	966,0	105,1
Jarqo`rg`on	13,5	58,6	240,6	102,5
Qumqo`rg`on	7,9	58,6	197,7	106,0
Qiziriq	7,1	65,7	199,2	104,5
Sariosiyo	8,6	70,7	192,7	103,1
Termiz	19,0	112,7	108,1	104,3
Uzun	1,7	19,5	179,6	106,4
Sherobod	10,6	57,0	261,0	105,4
Sho`rchi	13,6	65,9	404,0	105,3

### Hududlarda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2019 yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 1821,8 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,5 %ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-iyun oylarida o'tgan yilga nisbatan viloyatning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkilar Termez shahri (7193,6 ming so'm), Denov (2626,5 ming so'm), va Sho'rchi tumanida (2043,3 ming so'm) hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Qumqo'rg'on tumanida (859,6 ming so'm), Sariosiyo (992,8 ming so'm) va Uzun tumanida (1059,3 ming so'm) qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

## Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	1821,8	103,5
Termiz Sh.	7193,6	116,6
Oltinsoy	1167,8	99,5
Angor	1634,4	100
Boysun	1715,9	103,1
Muzrabot	1320,3	100,7
Denov	2626,5	101,3
Jarqo'rg'on	1186,8	98,0
Qumqo'rg'on	859,6	100,4
Qiziriq	1211,3	99,7
Sariosiyo	992,8	99,0
Termiz	1184,6	102,9
Uzun	1059,3	99,8
Sherobod	1431,5	99,8
Sho'rchi	2043,3	100,9


Jumladan, 2019 yilning yanvar-iyun oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,0 % ni tashkil etib, 93,9 mlrd. so'mga yetdi yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,6 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 88,9 % ulushi kichik tadbirkorlik sub'ektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

**SURXONDARYO VILOYATINING  
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**  
(2019 yil yanvar- iyun )

Yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1160,7 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 8,9 % ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajmi kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-iyun oyilari yakunlariga ko'ra, 782,9 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,9 % ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 67,5 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda, Termiz (90,4%), Angor (89,2%), Boysun (88,2%) va Sariosiyo (82,0%) tumanlarida yuqori bo'lgan.

### Yirik va kichik korxonalar ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 32,5 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarining ulgurji savdo aylanmasining aksariyati Qumqo'rg'on (66,9%), Muzrabot (56,6%) va Jarqo'rg'on (51,3%) tumanlarida kuzatildi.



### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Surxondaryo viloyati</b>	1160,7	108,9	377,8	113,2	782,9	106,9
Termiz sh.	218,8	103,5	96,4	99,5	122,4	106,9
Oltinsoy	40,2	116,8	20,0	127,5	20,2	107,8
Angor	95,9	112,1	10,4	151,9	85,5	108,6
Boysun	5,1	98,6	0,6	61,8	4,5	107,3
Muzrabot	70,2	119,7	39,7	135,0	30,5	104,4
Denov	174,5	106,6	47,8	102,4	126,7	108,3
Jarqo'rg'on	105,6	117,0	54,2	130,2	51,4	105,7
Qumqo'rg'on	48,3	117,6	32,3	123,9	16	106,6
Qiziriq	101,6	105,8	22,4	102,7	79,2	106,7
Sariosiyo	39,4	107	7,1	106,0	32,3	107,2
Termiz t.	95,8	108,2	9,2	115,4	86,6	107,5
Uzun	27,4	95,6	5,5	69,8	21,9	105,3
Sherobod	103,2	115,0	21,6	182,2	81,6	104,8
Sho'rchi	34,7	95,8	10,6	79,5	24,1	105,2

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining  
o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)**



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'ati Uzun tumanida (95,6 %) va eng yuqori o'sish esa Muzrabot tumanida (119,7) qayt etilgan.

Surxondaryo viloyat statistika  
boshqarmasi tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi  
(0371) 230-85-82